

YANGI O‘ZBEKISTONNING XALQARO MIQYOSDAGI TASHABBUSLARI

Murodxonov Muhammadnur

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Yurisprudensiya (Islom huquqi), 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, mintaq va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham e’tirof etmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik aloqalari hamda huquqiy, siyosiy, ma’naviy birdamlik mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik uchun asosiy vazifani bajaradi. Keyingi yillarda mintaqada yanada mustahkamlangan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik munosabatlari huquqiy, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda ijobiy natijalar qo‘lga kiritilishida muhim omil bo‘lmoqda. Masalan, O‘zbekistonning qat’iy sa’y-harakatlari tufayli qo‘shni mamlakatlar bilan barcha dolzarb masalalar, jumladan, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanishga doir masalalarda kelishuvlarga erishildi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlarining romana-german tizimi asosida shakllangan huquqiy tizim ekanligi ularning istiqbolli rejalari uchun munosib zamin yaratadi. Qolaversa, davlat va jamiyat qurilishida ro‘y berayotgan islohotlar hamda modernizatsiyalash sharoitida davlat va huquqning namoyon bo‘lishi, o‘zgarishi, takomillashuvi o‘z xususiyatlariga ega bo‘lishi tabiiy.

Kalit so‘zlar: huquq, Markaziy Osiyo, delimitatsiya, Konstitutsiya, strategiya, siyosat, xalqaro maydon, tashabbus.

Аннотация:

Узбекистан, как равноправный субъект международных отношений, наладил активную внешнюю политику на региональном и глобальном уровне и развивает взаимовыгодные отношения с зарубежными партнерами. Такая последовательная, ясная и конструктивная внешняя политика признается международными экспертами и наблюдателями. Добрососедские отношения со странами Центральной Азии, правовая, политическая и духовная



солидарность играют ключевую роль в сотрудничестве между странами. В последние годы укрепившееся взаимное доверие, отношения добрососедства и сотрудничества в регионе стали важным фактором достижения положительных результатов в правовой, политической, торгово-экономической, культурно-гуманитарной сферах. Например, благодаря решительным усилиям Узбекистана достигнуты договоренности с соседними странами по всем актуальным вопросам, включая делимитацию и демаркацию государственных границ, рациональное использование водных ресурсов. Кроме того, тот факт, что правовая система стран Центральной Азии сформировалась на основе романо-германской системы, создает подходящую основу для их дальнейших планов. При этом естественно, что проявление, изменение и совершенствование государства и права имеют свои особенности в условиях реформ и модернизации, происходящих в построении государства и общества.

Ключевые слова: право, Центральная Азия, разграничение, Конституция, стратегия, политика, международная арена, инициатива.

Abstract:

Uzbekistan, as an equal subject of international relations, has established an active foreign policy at the regional and global level and is developing mutually beneficial relations with foreign partners. Such consistent, clear and constructive foreign policy is recognized by international experts and observers. Good neighborly relations with the countries of Central Asia and legal, political, and spiritual solidarity play a key role in the cooperation between the countries. In recent years, strengthened mutual trust, good neighborliness and cooperative relations in the region have become an important factor in achieving positive results in the legal, political, trade-economic, cultural-humanitarian spheres. For example, due to the determined efforts of Uzbekistan, agreements were reached with neighboring countries on all current issues, including the delimitation and demarcation of state borders and the rational use of water resources. In addition, the fact that the legal system of the Central Asian countries was formed on the basis of the Romano-Germanic system creates a suitable basis for their future plans. Moreover, it is natural that the manifestation, change, and improvement of the state and law have their own characteristics in the conditions of reforms and modernization taking place in the construction of the state and society.



Keywords: law, Central Asia, delimitation, Constitution, strategy, policy, international arena, initiative.

Keyingi yillarda mintaqada yanada mustahkamlangan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik munosabatlari huquqiy, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda ijobiy natijalar qo‘lga kiritilishida muhim omil bo‘lmoqda. Masalan, O‘zbekistonning qat’iy sa’y-harakatlari tufayli qo‘shni mamlakatlar bilan barcha dolzarb masalalar, jumladan, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanishga doir masalalarda kelishuvlarga erishildi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlarining romana-german tizimi asosida shakllangan huquqiy tizim ekanligi ularning istiqbolli rejalari uchun munosib zamin yaratadi. Qolaversa, davlat va jamiyat qurilishida ro‘y berayotgan islohotlar hamda modernizatsiyalash sharoitida davlat va huquqning namoyon bo‘lishi, o‘zgarishi, takomillashuvi o‘z xususiyatlariga ega bo‘lishi tabiiy.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlari, xalqimizning tarixiy huquqiy merosi, huquqiy qadriyatlari va an‘analari, shuningdek, jamiyatimiz maqsadi sifatida ilgari surilgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish kabi bir nechta ustuvor g‘oyalar butun Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy shiorga aylangan. Bu esa, o‘z o‘rnida o‘zaro maqsadlar uyg‘unligini vujudga keltiradi. Bugungi o‘zbek jamiyati o‘zi uchun “ijtimoiy-huquqiy davlat”, “inson qadri”, “so‘z erkinligi” “plyuralizm” kabi fundamental tushunchalarni qayta kashf etmoqda [1:12].

Markaziy Osiyo mamlakatlari har jihatdan kundan-kunga hamjihatlashib bormoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qo‘shnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro do‘stona muloqotlar dinamikasini 2 ta bosqichga bo‘lsak bo‘ladi. Bular: 2017-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davr va 2020-yildan to hozirgacha davom etib kelayotgan davr. 1-davr bir nechta siyosiy-huquqiy vaziyatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ulardan biri sifatida koronavirus infeksiyasining dunyo bo‘ylab keng tarqalgani va buning natijasida minglab insonlar xalok bo‘lganlarini ko‘rishimiz mumkin. Bunday global darajadagi inqirozli xavf-xatarlar



davrida ham mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlab, mintaqa davlatlari va jahon mamlakatlari bilan mustahkam aloqani davom ettirishga alohida e'tibor berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining tashabbuskor rejalari hamda ilg'or fikrlari bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng yetkachi rahbarlaridan biriga aylanib bo'ldi. Buning isboti sifatida, **iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tahdidlarga qarshi kurashish mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlash** borasidagi ilg'or tashabbuslarni misol qilsak ham bo'ladi.

Shu munosabat bilan, Samarqandda Markaziy Osiyodagi iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan xalqaro forum o'tkaziladi. Prezident mintaqa mamlakatlari delegatsiyalarini mazkur anjuman ishida faol ishtirok etishga taklif qilgan.

Forum yakunlari bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" deb nomlangan rezolyutsiyasi loyihasi tayyorlanadi.

Shuningdek, Iqlim o'zgarishlariga moslashish masalalari bo'yicha mintaqaviy strategiyani qabul qilish ham iqlim barqarorligini va "yashil" taraqqiyotni ta'minlashga qo'shilgan amaliy hissa bo'lishi mumkinligi qayd etildi. Mintaqaning iqlimga oid yagona kun tartibini shakllantirish va birgalikda ta'sirchan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun ekologiya vazirlari darajasida "Iqlim bo'yicha Markaziy Osiyo muloqoti" ko'p tomonlama platformasini ta'sis etish taklif qilindi. Bundan tashqari, Prezidentimiz tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlariga bir nechta fundamental tashabbuslar bilan murojaat qilindi:

- Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasida yoshlarga oid siyosatning umumiy yo'nalishlari to'g'risida bitim;
- Markaziy Osiyoda yerusti transportining o'zaro bog'liqligini mustahkamlash to'g'risida bitim;
- Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari ishlari bo'yicha Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi to'g'risida nizom;
- 2022–2025 yillarda Markaziy Osiyoda salomatlik va farovonlikni qo'llab-quvvatlash uchun "yo'l xaritasi" [3].

Davlatimiz rahbari tomonidan xalqaro hamjamiyatni tashvishga solib turgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan konseptual jihatdan mutlaqo yangi 10 ta tashabbus ilgari surildi. Mazkur tashabbuslarning 3 tasi muhim xalqaro huquqiy hujjat qabul qilish, BMT rahbarligida 2 ta institutni tashkil etish hamda xalqaro hamjamiyat muhokama qilishi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan xalqaro yig'ilishlarni o'tkazish bilan bog'liq.



Xalqaro miqyosdagi mazkur hujjat yuzaga kelgan tahlikali vaziyatga davlatlarning tezkor va hamkorlikdagi kechiktirib bo'lmaz sa'y-harakatlarini o'zida aks ettiradi. Quyidagi obyektiv omillar mazkur xalqaro dasturiy hujjatning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatib turibdi.

Birinchidan, bugungi sinovli davrda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish katta xavf ostida qolmoqda. Global miqyosda xalqaro yordam va hamkorlik dasturining izchil amalga oshirilmasligi ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni to'liq amalga oshirishda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi tabiiy [4:2].

Ikkinchidan, hozirgi inqirozning asosiy muammolaridan biri aholini zarur oziq-ovqat va dori-darmon vositalari bilan uzluksiz ta'minlash bo'lib qolmoqda. Ishtirokchi davlatlar xalqaro shartnomalarda sog'liqni saqlash huquqining e'tiborga olinishini ta'minlashi muhim hisoblanadi.

Xalqaro miqyosdagi mazkur hujjat yuzaga kelgan tahlikali vaziyatga davlatlarning tezkor va hamkorlikdagi kechiktirib bo'lmaz sa'y-harakatlarini o'zida aks ettiradi. Quyidagi obyektiv omillar mazkur xalqaro dasturiy hujjatning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatib turibdi.

Birinchidan, bugungi sinovli davrda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish katta xavf ostida qolmoqda. Global miqyosda xalqaro yordam va hamkorlik dasturining izchil amalga oshirilmasligi ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni to'liq amalga oshirishda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi tabiiy.

Ikkinchidan, hozirgi inqirozning asosiy muammolaridan biri aholini zarur oziq-ovqat va dori-darmon vositalari bilan uzluksiz ta'minlash bo'lib qolmoqda. Ishtirokchi davlatlar xalqaro shartnomalarda sog'liqni saqlash huquqining e'tiborga olinishini ta'minlashi muhim hisoblanadi [2:15].

Bularning zahirida Markaziy Osiyo mamlakatlarini do'stona aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, mintaqaning tinchligi va farovonligi bilan bevosita bog'liqdir. Markaziy Osiyo mamlakatlari bundan tashqari bir nechta yirik masalalarda ham o'zaro hamkor ekani, mamlakatlarning istiqboli uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zaro mos huquqiy tizimga ega bo'lganligi, aynan ushbu mamlakatlarning yutug'i desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchidan, Yangi O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalari nafaqat mamlakatimiz uchun balki qo'shni mamlakatlarning taraqqiyoti uchun ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda; ikkinchidan, O'zbekiston Prezidentining mintaqaviy darajadagi tashabbuslari davlatimizning



mintaqada, shu bilan birga, global miqyosdagi mavqeini ham mustahkamlamoqda. Bu esa Yurtimizning har tomonlama yuksalishi uchun muhim rol o‘ynaydi.

MANBALAR

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. -T.: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022.
2. Karlyukevich A., belarus adibi. (Belarusda chop etiladigan “Zvyazda” gazetasining 29-sentyabrdagi sonidan olindi).
3. “Spot” jurnali. “Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlariga qanday takliflarni bildirdi?”, 15.09.2023.
4. Yusupov S. Yangi O‘zbekistonning global tashabbuslari, 2020 y. 7-oktyabr maqola. www.yuz.uz.

